

**"O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA SODDA TO'YBEKA OBRAZI
MOHIYATI**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Adabiyot nazariyasi yo'nalishi tayanch doktoranti
Kamolova Sadoqat O'lmasali qizi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi To'ybekan obrazining mohiyati, obrazga yuklatilgan vazifa, yozuvchining maqsadi va obrazning badiiy qiymati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sodda, kuyov, to'y, xabar, muhit, elchi, vazifa,

Abstract: This article discusses the essence of the image of Toybeka in Abdulla Qodiriy's novel "Days Past", the task assigned to the image, the writer's purpose, and the artistic value of the image.

Key words: simple, groom, wedding, message, environment, ambassador, task

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность образа Тойбеки в романе Абдуллы Кадыри «Минувшие дни», задача, поставленная перед образом, цель писателя, художественная ценность образа.

Ключевые слова: простой, жених, свадьба, сообщение, окружающая среда, посол, задача

Bizga ma'lumki, sodda va beg'ubor odamlar doimo haqiqatni gapiradi . Haqiqat esa soddalikning nishonasi sifatida go'zal tushuntiriladi. Qodiriyning mahoratini ko'rsatuvchi muhim bir omil xuddi mana shu soddalik hislatidan unumli foydalanishidir. "O'tkan kunlar" romanidagi xizmatkor ayol To'ybekani eslaylik. Avvalo ta'kidlash joizki, ushbu romanda xotin-qizlar obrazi o'zgacha mahorat bilan tasvirlangan. Ularning ismlari-yu, harakter va qobilyatlari, go'zalliklariga alohida urg'u beriladi. To'ybekan oddiy uy xizmatchisi. Tasvirga e'tibor bersak: sodda, qo'pol ammo yetarlicha quvnoq ayol.

O'choq boshida qo'polg'ina, qirq besh yoshlar chamaliq yana bir xotin choy

qaynatib yuradir. Bu xotin ersa oilaning cho'risi – To'ybeqa.

Qodiriy To'ybekaga bundan ortiq sifat bermaydi va voqealarni yoritish asnosida uni kitobxonga yaqindan tanitishni maqsad qiladi. Ushbu epizod orqali yozuvchi tashqi muhitdan ichkaridagi ayollarni xabardor qiluvchi elchi sifatida foydalanadi va yana bir muhim jihatni ushbu soddaginaning ‘naq kuyov bo‘ladigan degan gapi ko‘pchilikka ma’qul hatto Mirzakarim qutidorga ham ma’qul ko‘rilgani alohida ta’kidlanadi.

So‘zdan so‘z chiqib Oftob oyim To'ybekadan so‘radi:

-Mehmonlar qanaqa kishilar ekan, tanidingmi?

Nax siz yosh mehmonni ko‘rmabsiz, dunyoga kelmabsiz, dedi Toybeka ong-u ters osh chaynab, bir chiroylik, bir aqllik, tag‘in o‘zi hammadan yuqorida o‘lturadir; hali yigirma ham bormagandir, mo‘ylabi ham endigina chiqaboshlagan... Nax bizga kuyav bo‘ladigan yigit ekan, dedi va Kumushka qarab kulib qo‘ydi. Bu so‘zdan Oftob oyim ham kulimsirab qiziga qaradi:

Ana, Kumush, sen eshitdingmi, opangning so‘zini, To'ybeqa senga er topqan, sen bo‘lsang boshim og‘riydir deb yotasan.

Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yoqutdek irinlari ostidagi sadafdek oq tishlari ko‘rinib ketdi ersa-da, biroq uning bu holi tezlik bilan tundliqqa alishindi.

Qolgan xizmatlaringizning bittasi endi menga er topish edi.

Qutidor mehmonlarni jo‘natib yotish uchun eshinar ekan, Oftob oyim so‘radi:

Chiroylik yigit, aqllik yigit, deb maxtiy-maxtiy To'ybekaning ichagi uzildi, u kim edi?

Mehmonimiz o‘sha edi, dedi qutidor, oshnamning o‘g‘li. toshkandlik Yusufbek hoji otlig‘ yaqin

To'ybekaning maxtag‘anicha bormi, o‘zi?

Bor, dedi qutidor va g‘italandi, — xudo kishiga o‘g‘il bersa shundayini bersin-da.

Oftob oyim kula-kula To'ybekanining Otabek to'g'risida so'zlagan gaplarini va Kumush bilan bo'lg'an mojarosini so'zlab chiqdi. Qutidor ham kulgidan o'zini to'xtatolmas ekan:

Tentagingning aqli balo, kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa, dedi.

Xizmatkor obrazi turli qiyofalarda: ayyor, soqov, aqli zaif kabi gavdalanadi. Biroq Qodiriy ushbu obrazni shunchaki sodda, beg'ubor va oldindan ko'ra bilish, moslay olish qobiliyatiga ega oddiygina ayolni tasvirga olishga qaror qilgan. Bu esa romanga ko'tarinkilik, donolik baxsh etgan. Qutidorning: Tentagingning aqli balo, degan gapi buning yorqin isboti. Va yana bir o'rinda To'ybekanining ayollik hilqatiga xos orzusiga ishora ham bor.

Ey... singlim, hali sen bilmaysan, dedi, u yigitni bir ko'rgin-da, hu, deb ketabergin... sen tugil, shu yoshim bilan menim ham unga tekkim keldi, dedi va xaholab yubordi.

Kumushbibi chirt etib yuzini To'ybekadan o'girdi.

Tezroq tegib qoling.

Koshki edi tegalsam, dedi To'ybeka, men uning bir tukiga ham arzimayman. Ammo sen bo'lsang uning bilan tenglashar eding. «Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan». Xa-xa-xa!...

Ushbu obrazlar orqali kitobxon to'y xabari, kuyovning ilk ko'rinishi, xulqi-atvori haqidagi har bir qizga qiziq bo'lgan faktlarni bildiradigan elchi obrazini ko'radi. Bu elchi esa soddaligi va haqiqatgo'yligi ortida ulkan vazifani ado etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https://tafakkur.net/otkan-kunlar/qovoq-devonaning-belbogi.uzb>
2. <https://xabar.uz>
3. <https://ziyo.uz>
4. <https://yoshlikjurnali.uz>
5. <https://tsuul.uz>